**Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi.** Tahlillar shuni ko'rsatadiki, xalqaro miqyosda ham voyaga yetmaganlar huquqbuzarligini muntazam ravishda kuzatib boruvchi yagona tashkilot mavjud emas. Shuningdek, ko'pgina davlatlarda bunday statistik ma'lumotlar yoki umuman yuritilmaydi, yoki keng jamoatchilikka ochiqqlanmaydi. YUNICEF tarqatgan ma'lumotlarga ko'ra, hozirgi kunda dunyo bo'ylab 1 milliondan ortiq bolalar ("Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiya"ga muvofiq, 18 yoshga to'lmagan shaxs) qamoqxonalarda saqlanmoqda. Qolaversa, iqtisodiy jihatdan rivojlangan G'arbiy Yevropa, AQSH va Yaponiya kabi mamlakatlarda voyaga yetmaganlar jinoyatchiligi eng ko'p sodir etilayotgan holatlardan biri sifatida qayd etilmoqda[4].

Shu nuqtai nazardan, voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etiladigan jinoyatchiligini ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Chunki bunday tahlil, avvalo, voyaga yetmagan shaxs va ular tomonidan sodir etiladigan jinoyatlarning huquqiy mohiyatini ochib berish, ularning ijtimoiy va psixologik xususiyatlarini chuqur anglash, jinoyatchilikka olib keluvchi sabab va shart-sharoitlarni tahlil qilish hamda profilaktika choralari amalga oshirishga qaratilgan mexanizmlarni takomillashtirish imkonini beradi.

*Voyaga yetmagan tushunchasi tahlili:*

O'zbek tilining izohli lug'atida esa "voyaga yetmagan" alohida ta'riflanmagan bo'lsada "voyaga yetmoq" tushunchasiga nisbatan: "ulg'ayib balog'atga (balog'at yoshiga) yetmoq". Umuman, yosh va boshqa jihatdan yetuk (yetilgan) darajaga erishmoq. Ma'lum bir ish, faoliyatda yetuklikka, kamolotga erishmoq. Unib, o'sib yetilmoq[5] degan ta'rifning berilgan. O'z-o'zidan ko'rinib turibdiki «voyaga yetmagan» tushunchasi "voyaga yetmoq" tushunchasining aksi, ya'ni antonimi bo'lib, "ulg'ayib balog'atga yetmagan, yosh va boshqa jihatdan yetuk darajaga, ish yoki muayyan bir faoliyatda yetuklikka yoki kamolotga erishmagan" ma'nolarini anglatadi.

**Muhokama.** Yuridik ensiklopediyada voyaga yetganlik yoshi tushunchasiga nisbatan: qonunda belgilangan yosh bo'lib, fuqaro shu yoshga yetgach to'laligicha huquqiy layoqatli deb sanaladi. O'zbekiston Respublikasida 18 yosh voyaga yetganlik yoshi qilib belgilangan[6]ligini ko'rishimiz mumkin.

*Xalqaro huquqdagi yondashuvlar:*

1989-yil BMT Bosh Assambleyasi tomonidan qabul qilingan «Bolalar huquqlari to'g'risida»gi Konvensiyada jinoiy yo'lga kirib qolgan bolalar va voyaga yetmaganlarning huquqlarini himoya qilishga oid muhim normalar belgilangan. Konvensiyaga ko'ra, bola – o'n sakkiz yoshga to'lmagan shaxs hisoblanadi[7]. Bu ta'rif O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksidagi «voyaga yetmagan» tushunchasiga mos keladi. Konvensiya, shuningdek, voyaga yetmaganlarni jinoiy javobgarlikka tortishning minimal yosh chegarasini belgilaydi. Biroq, ayrim davlatlarda mazkur yosh chegarasi ancha past belgilangan: masalan, Irlandiyada – 7 yosh, Yaponiyada – 13 yosh, Niderlandiyada – 12 yosh. Bu holat qonunchilikdagi yosh chegarasi shaxsning aqliy va jismoniy rivojlanish darajasiga bog'liq holda belgilanishini ko'rsatadi.

Shu bilan birga, 1985-yilda qabul qilingan BMTning Minimal standart qoidalarida voyaga yetmaganlarga nisbatan jazo tayinlashda odil sudlovni ta'minlash prinsiplari belgilab berilgan. Unga ko'ra, agar shaxs jinoyat subyekti yoshiga yetgan bo'lsa-da, ammo aqliy va ruhiy rivojlanmaganligi sababli o'z qilmishining ijtimoiy xavfli oqibatini to'la anglab yetmasa, u holda jinoyat subyekti zaruriy belgisiga ega hisoblanmaydi. Bunday shaxsга nisbatan jinoiy javobgarlik emas, balki ma'muriy majburlov choralari qo'llaniladi[8].

Xalqaro huquqiy hujjatlarda (1985-yilgi BMTning Minimal standart qoidalarida va 1989-yilgi Konvensiya) voyaga yetmagan shaxsning jinoiy javobgarlikka tortilishida uning yoshi bilan birga aqliy va jismoniy rivojlanganlik darajasi ham hal qiluvchi ahamiyatga ega ekani ta'kidlangan. Bu esa shuni anglatadiki, jinoyat subyekti yosh chegarasini belgilashda faqat kalendar yosh emas, balki shaxsning psixologik va intellektual yetuklik darajasi ham hisobga olinishi zarur. Shuning uchun turli davlatlarda jinoiy javobgarlik yoshi turlicha belgilangan. Demak, voyaga yetmaganlar jinoyatchiligini huquqiy baholashda *yosh me'yor bilan bir qatorda shaxsning psixofiziologik holatini inobatga olish* – xalqaro va milliy huquqda muhim tamoyil sifatida namoyon bo'ladi.

#### *Milliy qonunchilikdagi ta'riflar tahlili:*

Qonun hujjatlarida bir xil huquqiy maqomga ega bo'lishi kerak bo'lgan (voyaga yetmagan shaxs bilan bog'liq) tushunchalarning turlicha ta'riflanishi amaliyotda huquqiy noaniqlik va turlicha talqin etilishiga olib kelishi mumkin. Quyidagi keltirgan ikki qonundagi holat shunga yaqqol misol:

1) O'zbekiston Respublikasining 2010-yil 29-sentyabrdagi "Voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi to'g'risida"gi Qonunida (3-modda) voyaga yetmagan o'n sakkiz yoshga to'lmagan shaxs sifatida ta'riflanadi[9]. Bu holda "voyaga yetmagan" tushunchasi mustaqil huquqiy kategoriya sifatida belgilanib, uning asosiy mezoni yosh chegarasi 18 yoshga to'lmaganlik hisoblanadi.

2) O'zbekiston Respublikasining 2008-yil 7-yanvardagi "Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi Qonunida (3-modda) esa bola (bolalar) o'n sakkiz yoshga to'lgunga qadar bo'lgan shaxs (yoki shaxslar) sifatida qayd etilgan[10]. Demak, qonun bolani alohida ijtimoiy-gumanitar maqomga ega shaxs sifatida ta'riflaydi va asosiy e'tiborni uning huquq va manfaatlarini himoya qilishga qaratadi.

**Natija.** Ilmiy tahlil nuqtayi nazaridan qaralganda ikki qonunda bir xil yosh chegarasi (18 yoshgacha) belgilangan bo'lsa-da, ularda qo'llanilgan terminologik ifoda ("voyaga yetmagan" va "bola") mazmun jihatdan turlicha huquqiy mazmun kasb etadi.

"Bola" atamasi ko'proq ijtimoiy-huquqiy himoyaga yo'naltirilgan, uning maqsadi bolaning huquq va erkinliklarini kafolatlashdan iborat.

“Voyaga yetmagan” atamasi esa jinoyatchilik va huquqbuzarlik profilaktikasi sohasida qo'llaniladi, ya'ni shaxsning huquqiy javobgarlik qobiliyati, nazoratsizlik va huquqqa xilof xatti-harakatlarga moyilligi nuqtai nazaridan baholanadi.

Bu ikki qonunda turlicha ta'rif berilishi, ayniqsa, huquqni qo'llash amaliyotida turli idoralar va mutaxassislar tomonidan tushunchalarni turlicha talqin qilinishiga, ba'zan esa huquqiy kolliziyalarga olib kelishi mumkin.

Yuqoridagilarga asoslangan holda, “bola” va “voyaga yetmagan” tushunchalarini yagona huquqiy-metodologik asosda uyg'unlashtirish, ularning ifoda uslubini standartlashtirish muhim hisoblanadi. Bu, o'z navbatida, profilaktika va huquqni muhofaza qilish tizimida izchillik va huquqiy aniqlikni ta'minlaydi.

*Jinoyat huquqi nazariyasida* voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etiladigan jinoyatlar alohida tur sifatida o'rganiladi. Chunki voyaga yetmagan shaxslar hali to'liq shakllanmagan ijtimoiy tajribaga, hayotiy tafakkurga, huquqiy ong va irodaviy barqarorlikka ega bo'lmaganligi sababli ularning qilmishlari kattalar qilmishidan tubdan farq qiladi[11]. Shu bois qonunchilikda ham, ilmiy adabiyotlarda ham voyaga yetmaganlar jinoyatining alohida belgilari ajratib ko'rsatiladi.

Mamlakatimizda 18 yoshga to'lmagan shaxslar voyaga yetmaganlar deb hisoblanadi[12], ammo jinoyat huquqi nuqtai nazaridan ularning javobgarlikka tortilishi muayyan yosh chegaralariga qarab belgilanadi.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksida jinoiy javobgarlik yoshi belgilab qo'yilgan bo'lib, unga ko'ra: a) umumiy holatlarda jinoiy javobgarlik 16 yoshdan boshlanadi; b) ayrim og'ir jinoyatlar uchun esa javobgarlik 14 yoshdan belgilanadi[13].

Demak, “voyaga yetmaganlar jinoyatchiligi deganda 14 yoshdan 18 yoshgacha bo'lgan shaxslar tomonidan sodir etilgan jinoyatlar va ularni sodir etgan shaxslar majmuasi” tushuniladi. Ayrim tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, voyaga yetmaganlar jinoyatchiligi rivojlanishi tendensiyalariga ta'sir etuvchi ayrim jarayonlar jinoyat subyekti hisoblanmaydigan kichik yoshdagi o'smirlar (10–13 yosh) hamda yoshlar (18–25 yosh) orasida ham kuzatiladi[14]. Shu bois, voyaga yetmaganlar orasida jinoyatchilikka qarshi kurash chora-tadbirlarini ishlab chiqishda bu holat albatta hisobga olinishi zarur.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, jinoyat huquqi nazariyasida voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etilgan jinoyat deganda, qonun bilan belgilangan javobgarlik yoshiga yetgan, ammo hali 18 yoshga to'lmagan shaxs tomonidan qasddan yoki ehtiyotsizlik ortidan sodir etilgan ijtimoiy xavfli qilmish tushuniladi[15].

#### *Ilmiy nazariy yondashuvlar (xorijiy olimlar misolida)*

Voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etiladigan jinoyat tushunchasi masalasi kriminologiya fanida muhim yo'nalishlardan biri hisoblanib, xorijiy olimlar tomonidan turli qirralarda keng o'rganilgan. Ilmiy izlanishlarda asosiy e'tibor ushbu toifadagi jinoyatlarning mohiyatini ochib berish bilan bir qatorda uning ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini aniqlash, sodir etilishiga ta'sir etuvchi sabab va shart-sharoitlarni tahlil qilish, shuningdek, jinoyat tushunchasini nazariy jihatdan asoslashga qaratilgan.

Xususan, Galperin I.M. “voyaga yetmaganlar jinoyatini “ijtimoiy tarbiya va nazorat yetarli darajada ta'minlanmagan sharoitda yuzaga keladigan jinoyatchilik shakli” sifatida ta'riflaydi[16]. Ushbu ta'rif jinoyatchilikning asosiy manbasi sifatida tarbiya va nazorat yetishmasligi omillariga urg'u beradi. Shu bilan birga, mazkur yondashuv muayyan holatlarda

to'liq tushuntirish bermasligi mumkin. Chunki ayrim vaziyatlarda shaxsning individual-psixologik xususiyatlari, irodaviy sifatlari va ichki ruhiy holati ham jinoyat sodir etilishida hal qiluvchi ahamiyat kasb etishi mumkin.

Dolgova A.I. "voyaga yetmaganlar jinoyatini "jamiyatdagi iqtisodiy va ma'naviy inqiroz holatlarini tez va og'ir qabul qiladigan yosh guruhning jinoyatchilik shakli" sifatida tavsiflaydi[17]. Bu ta'rif ijtimoiy-iqtisodiy inqiroz sharoitida voyaga yetmaganlarning jinoyatga moyilligi yuqori bo'lishini to'g'ri ko'rsatadi. Afzal jihati jinoyatchilikni keng ijtimoiy jarayon bilan bog'lashida. Biroq ta'rif jinoyatning individual-psixologik xususiyatlarini kam yoritadi.

Avanesov G.A. "voyaga yetmaganlar jinoyati bu ayniqsa ijtimoiy muhit ta'sirida shakllanadigan va shaxsning yosh xususiyatlari bilan uzviy bog'liq bo'lgan jinoyatchilik turi" deb hisoblaydi[18]. Bu ta'rif ijtimoiy muhit va yosh psixologiyasini birinchi o'ringa qo'yadi. To'g'ri, voyaga yetmaganlik davrida shaxs muhit ta'siriga ko'proq moyil bo'ladi. Lekin ta'rif jinoyatning iqtisodiy va ma'naviy omillarini kamroq yoritadi. Shu jihatdan, bu ta'rif nisbatan cheklangan deb baholanishi mumkin.

Batisheva Ye.V., "voyaga yetmaganlar jinoyatchiligi bu muayyan hududda va muayyan vaqt davomida sodir etilgan barcha huquqqa xilof qilmishlar majmuidan iborat bo'lgan salbiy ijtimoiy hodisadir". Jinoyatchilikning mazkur turi jamiyat holatiga juda sezgir tarzda ta'sirchanlik bilan munosabat bildirib turadi[19]. Batishevaning ta'rifini jinoyatchilikning ijtimoiy-dinamik mohiyatini ochib bersa-da, voyaga yetmaganlar jinoyatlarini chuqur anglash uchun uni individual-psixologik va huquqiy omillar bilan to'ldirish maqsadga muvofiq.

Samiulina Ya.V. ayol jinsidagi voyaga yetmaganlar jinoyatchiligini o'rganib, "voyaga yetmagan ayollarning jinoyati zamonaviy jinoyatchilikning o'ziga xos turi bo'lib, uning o'ziga xosligi kichik jinoyatchi shaxsining o'ziga xos xususiyatlari bilan belgilandi va miqdor va sifat ko'rsatkichlarga ega bo'lgan muayyan hududda ma'lum vaqt davomida 14 yoshdan 18 yoshgacha bo'lgan ayollar tomonidan sodir etilgan barcha jinoyatlarning yig'indisidir"[20] deydi. Fikrimizcha, so'nggi ta'rif ilgari mualliflarnikiga nisbatan ancha mukammaldir.

Kuznetsova N.F. "voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etiladigan jinoyatlar nafaqat huquqiy, balki ijtimoiy-psixologik tushuncha sifatida ham tadqiq qilinishi lozim, chunki ular voyaga yetmaganlik davriga xos emotsional beqarorlik va ijtimoiy nazoratning zaifligi bilan bog'liq" deb yozadi[21]. Bu ta'rif jinoyatning ko'p qirrali mohiyatini, ya'ni huquqiy va ijtimoiy-psixologik omillarni birgalikda tahlil qilish zarurligini asoslaydi. Bu eng to'liq yondashuvlardan biri bo'lib, voyaga yetmaganlik psixologiyasi va huquqiy masalalarni uyg'unlashtirgan.

Gribanov Ye. V. "voyaga yetmaganlar jinoyatchiligi – katta ijtimoiy yovuzlik bo'lib, u profilaktika subyektlari jinoyatchilikka qarshi kurash choralarining samaradorligini oshirishda, shuningdek, o'smirlar tomonidan huquqqa xilof xatti-harakatlarning har qanday salbiy ko'rinishlarini oldini olishga qaratilgan hududiy tizimlarni ishlab chiqishda yetarli darajada manfaatdor emasligidan dalolat beradi"[22]. Gribanovning ta'rifini voyaga yetmaganlar jinoyatchiligini kamaytirishda profilaktika tizimining samaradorligini oshirish zarurligini ko'rsatadi. Biroq, masalaning mukammal yoritilishi uchun jinoyatchilikka ta'sir etuvchi shaxsiy va ijtimoiy omillarni ham hisobga olish talab etiladi.

Xorijiy olimlar tomonidan berilgan ta'riflar tahlili shuni ko'rsatadiki, voyaga yetmaganlar jinoyatchiligiga oid tushuncha yagona va universal emas, balki turlicha yondashuvlarda talqin qilingan. Ayrim olimlar (I.M. Galperin, G.A. Avanesov) jinoyatchilikni asosan ijtimoiy muhit va nazoratning yetishmasligi bilan bog'lagan bo'lsalar, boshqalar (A.I.

Dolgova, N.F. Kuznetsova) uni keng ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar yoki ijtimoiy-psixologik xususiyatlar bilan izohlaydilar. Batisheva Ye.V. va Samiulina Ya.V. jinoyatchilikni hududiy-statistik holat sifatida yoritgan bo'lsa, Gribanov Ye.V. uni katta ijtimoiy yovuzlik sifatida baholaydi.

Shu jihatdan, voyaga yetmaganlar jinoyatchiligiga oid ta'riflar shartli ravishda **uch guruhga** ajratish mumkin:

- ijtimoiy muhit va nazorat omillariga asoslangan ta'riflar;
- ijtimoiy-iqtisodiy va psixologik jarayonlarga tayangan ta'riflar;
- jinoyatchilikni ijtimoiy hodisa yoki statistik holat sifatida talqin qiluvchi ta'riflar.

Umuman olganda, voyaga yetmaganlar jinoyatchiligi ko'p qirrali hodisa bo'lib, uni to'liq anglash uchun huquqiy, ijtimoiy, iqtisodiy va psixologik jihatlarni uyg'un holda o'rganish zarur degan xulosaga kelish mumkin.

*Milliy olimlar qarashlari:*

Kriminologik tadqiqotlarda voyaga yetmaganlar jinoyati tushunchasini o'rganish alohida ahamiyatga ega yo'nalish sifatida namoyon bo'lib, milliy olimlar tomonidan turli qirralarda tahlil qilingan. Tadqiqotlarda, bir tomondan, mazkur toifadagi jinoyatlarning mohiyati va huquqiy asoslarini yoritishga, ikkinchi tomondan, ularning ijtimoiy va psixologik xususiyatlarini chuqur tahlil etishga e'tibor qaratilgan. Shu bilan birga, sodir etilishiga ta'sir etuvchi sabab va shart-sharoitlar o'rganilib, jinoyat tushunchasi nazariy jihatdan asoslanmoqda.

Mirsalixova G.O., ning tadqiqotlarida voyaga yetmaganlar jinoyatchiligi voyaga yetmaganlarning qonunga xilof harakatlarni sodir etishga beriluvchanligi jara'ni juda ko'p vaziyatlarda biror-bir tashqi omillar ta'siri natijasi ekanligi ta'kidlanadi[23]. G. Mirsalixova o'z tadqiqotlarida voyaga yetmaganlar jinoyatchiligini asosan tashqi omillar ta'siri natijasi sifatida izohlaydi. Uning bu yondashuvida jinoyat sodir etilishiga olib keluvchi shaxsning ichki xususiyatlari va individual omillar ko'p hollarda nazardan chetda qolgan. Shuning uchun G. Mirsalixovaning qarashlari bir tomonlama hisoblanadi, chunki u jinoyatchilikni ko'proq tashqi muhit ta'siri bilan bog'laydi, ammo shaxsning ichki xususiyatlari va individual omillarni yetarli darajada inobatga olmaydi.

N.A. Ramazonova voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etilgan jinoyatlarni tergov qilish faoliyatini o'rganib, "voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etilgan jinoyatlar deganda jinoyat qonunchiligida nazarda tutilgan jinoiy javobgarlikning minimal yoshi va milliy qonunchilik asosida voyaga yetish yoshi sifatida tan olingan yoshga yetgunga qadar sodir etilgan jinoyatlar tushuniladi" degan ta'rifni ilgari surgan[24]. Ushbu ta'rifga qo'shilmaymiz, chunki unda voyaga yetmaganning aniq yosh chegarasini belgilashi maqsadga muvofiq bo'lar edi.

B.O. Gadoymurodovning fikricha, voyaga yetmaganlar jinoyatchiligi kattalar jinoyatchiligi kabi ijtimoiy xavfli hodisadir, chunki, u:

- jamiyat taraqqiyotiga, iqtisodiy islohotlarga va davlat boshqaruviga to'sqinlik qiladi;
- jamiyat sokinligini, jamoat tartibini va aholining osoyishta hayotini buzadi, ijtimoiy va siyosiy vaziyatni keskinlashtiradi;
- inson huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlari buzilishiga, ijtimoiy hayotning yomonlashuviga va ijtimoiy institutlarning beqarorligiga olib kelishi mumkin;
- jamiyat a'zolariga yetkazilayotgan moddiy, ma'naviy va jismoniy zarari bilan insonlarda ishonchsizlik, vahima, qo'rquv hisini uyg'otadi;

- mustahkam fikrga ega bo'lmagan tengdoshlarining xulq-atvorini buzadi, ularni jinoyat sodir etishga undaydi;

- jinoyatchilikning sabab va sharoitlarini yanada kuchaytiradi[25]. Gadoymurodov B.O.ning qarashlari jinoyatchilikning ijtimoiy xavfini ochib berishda muhim ahamiyatga ega bo'lsa-da, uning tahlili ko'proq **oqibatlar tavsifi**ga qaratilgan, sabab va profilaktika masalalari esa yetarlicha qamrab olinmagan.

I.A.Ismoilov voyaga yetmaganlar jinoyatining asosiy xususiyati sifatida “voyaga yetmaganlik davriga xos qonunbuzarlikka moyillik va muhit ta'sirchanligini” ta'kidlaydi[26]. Bu ta'rif milliy muhit va voyaga yetmaganlik davri realiyalariga yaqin. Lekin uning kamchiligi jinoyatning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy omillari kamroq yoritilgan. Biroq jinoyat profilaktikasini amaliy jihatdan belgilashda muhim ahamiyatga ega.

Sh.M.Mirzayev “voyaga yetmaganlar jinoyati – bu nafaqat huquqiy, balki ijtimoiy muammo sifatida ham baholanishi kerak” deb ta'kidlaydi[27]. Bu ta'rif voyaga yetmaganlar jinoyatining keng ijtimoiy ahamiyatiga e'tibor qaratadi. Chunki voyaga yetmaganlik jinoyatchiligi faqat qonunbuzarlik emas, balki oila, maktab, mahalla va jamiyat tizimlaridagi muammolarning ko'zgusi hisoblanadi. Shu jihatdan, bu ta'rifni zamonaviy va ilmiy jihatdan keng qamrovli deb baholash mumkin.

Ko'rib chiqilgan ta'riflardan ko'rinadiki, voyaga yetmaganlar jinoyati – ko'p qirrali ijtimoiy-huquqiy tushuncha bo'lib, uning kelib chiqishi tarbiya, muhit, yosh psixologiyasi, iqtisodiy va ma'naviy omillar bilan uzviy bog'liq.

Yuqoridagi tahlillarga asoslangan holda, olimlarning ta'riflari va ularga bildirilgan izohlardan kelib chiqib, quyidagi xulosaga kelish mumkin:

*birinchidan*, voyaga yetmaganlar jinoyati yagona sabab bilan izohlanmaydi, balki tarbiya va nazorat yetishmasligi (Galperin), ijtimoiy muhit va yosh psixologiyasi (Avanesov), jamiyatdagi iqtisodiy-ma'naviy inqirozlar (Dolgova), voyaga yetmaganlik davriga xos emotsional beqarorlik (Kuznetsova), milliy muhit ta'sirchanligi (Ismoilov) hamda ijtimoiy tizimdagi muammolar (Mirzayev) kabi omillar majmuasi natijasida yuzaga keladi.

*ikkinchidan*, tadqiqotchilarning qarashlari shuni ko'rsatadiki, voyaga yetmaganlar jinoyatini faqat huquqiy nuqtai nazardan emas, balki ijtimoiy, iqtisodiy va psixologik jihatdan ham kompleks tahlil qilish zarur. Bu yondashuv jinoyat profilaktikasini samarali tashkil etish imkonini beradi.

*uchinchidan*, voyaga yetmaganlar jinoyati jamiyatdagi umumiy muammolarning ko'zgusi bo'lib, uni bartaraf etishda oila, ta'lim muassasalari, mahalla, davlat va jamoat tashkilotlarining birgalikdagi harakatlari muhim ahamiyatga ega.

*to'rtinchidan*, eng qamrovli va mukammal yondashuv sifatida N.F. Kuznetsova va Sh.M. Mirzayevning ta'riflari alohida o'rin tutadi. Chunki ular voyaga yetmaganlar jinoyatini huquqiy, ijtimoiy va psixologik jihatdan uyg'un holda izohlaydi.

**Xulosa.** Yuqoridagi tahlillarga asoslanib, voyaga yetmaganlar jinoyati tushunchasiga mualliflik ta'rifi ishlab chiqildi. Xususan:

*Voyaga yetmaganlar jinoyati* – bu qonun bilan belgilangan javobgarlik yoshiga yetgan, ammo ruhiy va ijtimoiy rivojlanishi to'liq shakllanmagan shaxslar tomonidan sodir etiladigan, jamiyat uchun xavfli qilmish bo'lib, u o'z mohiyatida huquqiy me'yorlarni buzish bilan birga, voyaga yetmaganlik davriga xos psixologik beqarorlik, oila va muhit ta'siri hamda ijtimoiy-iqtisodiy omillar majmuasi natijasida vujudga keladigan ijtimoiy-huquqiy hodisadir.

*Xulosa sifatida ta'kidlash joizki, voyaga yetmaganlar jinoyatchiligi* – bu 14 yoshdan 18 yoshga qadar bo'lgan shaxslar tomonidan sodir etilgan jinoyatlarning yig'indisidir. Voyaga yetmaganlar jinoyatchiligi ham umuman jinoyatchilikni vujudga keltiruvchi omillar ta'sirida rivojlanadi. Shu sababdan ham voyaga yetmaganlar jinoyatchiligini tadqiq etishda kriminologiyaga oid bo'lgan umumiy tavsiflar, ko'rsatkichlar va usullardan foydalaniladi.

#### Adabiyotlar/Литература/References:

1. Азизов Д.А. Вояга етмаганлар ўртасида жиноятчиликни олдини олиш ва профилактикаси. Мақола. <https://global-science-review.com/ojs/index.php/gsr/article/view/2161/2008>.
2. 2023 йил 28 июль куни Фарғона шаҳрида Ички ишлар вазирлигининг кенгайтирилган ҳайъат йиғилишида Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёев ўз маърузаси. <https://president.uz/uz> сайти (28.07.2023 йил).
3. Азизов Д.А. Вояга етмаганлар ўртасида жиноятчиликни олдини олиш ва профилактикаси. Мақола. <https://global-science-review.com/ojs/index.php/gsr/article/view/2161/2008>.
4. Эргашев Ж. Ижтимоий-психологик таҳлил: вояга етмаганлар қандай қилиб ҳуқуқбузарга айланади? Мақола. <https://uz.hook.report/2022/07/mama-ama-criminal>.
5. Ўзбек тилининг изоҳли луғати / 80 000 дан ортиқ сўз ва сўз бирикмаси / [www.ziyouz.com](http://www.ziyouz.com) / кутубхонаси. Б 469.
6. Юридик энциклопедия / Юридик фанлар доктори, профессор У.Таджихановнинг умумий таҳририда. — Т.:
7. «Шарқ», 2001. — 656 б. Б. 62.
8. Мустофакулов Б., Улуғбеков В. Профилактика инспекторининг вояга етмаган ёки меҳнатга лаёқатсиз шахсларни моддий таъминлашдан бўйин товлаш жиноятларининг профилактикасини такомиллаштириш //Журнал академических исследований нового Узбекистана. – 2025. – Т. 2. – №. 2. – С. 81-85.
9. Исаев Ш., Вояга етмаганларнинг жавобгарлиги тушунчаси ва унинг аҳамияти. Academic research in modern science International scientific-online conference <https://doi.org/10.5281/zenodo.15349825>
10. Ўзбекистон Республикасининг 2010 йил 29 сентябрдаги “Вояга етмаганлар ўртасида назоратсизлик ва ҳуқуқбузарликларнинг профилактикаси тўғрисида”ги Қонуни. <https://lex.uz/ru/docs/1297315>.
11. Ўзбекистон Республикасининг 2008 йил 7 январдаги “Бола ҳуқуқларининг кафолатлари тўғрисида”ги Қонуни. <https://lex.uz/ru/docs/1297315>.
12. Каримов И.А., Жиноят ҳуқуқи. Умумий қисм. – Т.: Ўзбекистон, 2004. – 132-135-бетлар.
13. Ўзбекистон Республикасининг 2010 йил 29 сентябрдаги “Вояга етмаганлар ўртасида назоратсизлик ва ҳуқуқбузарликларнинг профилактикаси тўғрисида”ги Қонуни. <https://lex.uz/docs/1685726?ONDATE=14.08.2024>
14. Ўзбекистон Республикаси Жиноят кодекси. <https://www.lex.uz/acts/111453>.
15. Griбанov E. V. Prestupnost' nesovershennoletnih v kontekste kul'tural'noj kriminologii: monografiya / E. V. Griбанov; pod nauch. red. A. V. Simonen-ko. – Krasnodar, 2017.
16. Қодиров, М.Х. Жиноят ҳуқуқи (махсус қисм). Дарслик. – Т.: 2018. – 57–63-бетлар.
17. Гальперин И.М. Преступность несовершеннолетних: причины и предупреждение. – Москва: Юрид. лит., 1985. – Б. 27–29.
18. Долгова А.И. Криминология. Учебник. – Москва, 2010. – Б. 457–460.
19. Аванесов Г.А. Криминология. – Москва: Норма, 2009. – Б. 312–315.

20. Батыщева Е.В., Преступность несовершеннолетних: состояние, причины, профилактика.// Вестник Уральского юридического института МВД России. file:///C:/Users/user/Downloads/prestupnost-nesovershennoletnih-sostoyanie-prichiny-profilaktika.pdf.
21. Самиулина Я.В. Личность несовершеннолетней преступницы и воздействие на нее: Автореф. ... дис. канд. юрид. наук. - Тамбов., 2009. Ст.12-24.
22. Кузнецова Н.Ф. Курс советской криминологии. Особенная часть. – Москва, 1988. – Б. 115–118.
23. Грибанов Е. В. Преступность несовершеннолетних в контексте культуральной криминологии: монография / под науч. ред. А. В. Симоненко. Краснодар, 2017.
24. Мирсалихова Г.А., Ривожланган хорижий давлатларда вояга етмаганлар томонидан содир этиладиган жиноятчиликка қарши курашишнинг тартибга солиниши. Innovative developments and research in education international scientific-online conferenc. <https://interonconf.org/index.php/idre/article/view/2930/2618>
25. Рамазонова Н.А. Вояга етмаганлар томонидан содир этилган жиноятларни тергов қилиш услубиёти: юридик фанлар доктори диссертацияси автореферати. - Т., 2020. 23 б. Б. 17.
26. Гадомуродов Б.О., Вояга етмаганлар ўртасида содир этилаётган жиноятлар тушунчаси ва ўзига хос хусусиятлари. Ўзбекистонда хотин-қизларнинг ҳуқуқларини таъминлаш ва оилавий зўравонликни олдини олишнинг долзарб масалалари. Республика илмий-амалий конференция материаллари. file:///C:/Users/user/Downloads/%D0%A1%D1%82%D0%B0%D1%82%D1%8C%D1%8F-36679-ru.pdf.; Узакбаев, К. Г. (2022). Вояга етмаганлар ўртасида содир этилаётган ҳуқуқбузарликларнинг илмий-назарий таҳлили: Хориж тажрибаси. Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS), 2(5), 346-355; Jurayev, S. S. O. G. L. (2022). abu Ali Ibn Sinoning inson va uning ma'naviy kamolot masalasiga munosabati. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2(Special Issue 23), 902-908.
27. Исмоилов И.А. Криминология. Дарслик.– Т.: ТДЮИ, 2005. – Б. 232–236.
28. Мирзаев Ш.М. Криминология асослари. Дарслик. – Т.: Ўзбекистон, 2007. – Б. 188–191.

# SCIENCEPROBLEMS.UZ

## IJTIMOYIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

*№ S/11 (5) – 2025*

## АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

## ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari”** elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

**Muassis:** “SCIENCEPROBLEMS TEAM”  
mas'uliyati cheklangan jamiyati

**Tahririyat manzili:**

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil: [scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

**Bog'lanish uchun telefon:**

(99) 602-09-84 (telegram).